

ZAMONAVIY TURIZM VA UNDA GAT DASTURLARINING O‘RNI

X.Davlatov,

*“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya
va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi*

M.Xudoynazarova,

*“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya
va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm va rekreatsiya tushunchalariga ta’rif berilgan. Ularning o‘zaro aloqasi, qaysitushuncha kengroq, qaysi biri torroq ekanligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Rekreatsiya, turizm, tasnif, tushuncha, yashil hudud, ta’rif, Butunjahon Turistik Tashkiloti.

Turizm va rekreatsiya bugungi kunda eng talabgir sohalardan biri hisoblanadi. Buni inkor etib bo‘lmaydi. Yuqorida biz uning qanday qilib jamiyat hayotiga kirib kelishi va uning asosiy qismiga aylanib qolish tarixini o‘rganib chiqdik. Lekin biz turizm va rekreatsiyaning asl mazamun va mohiyatini ochib bera olganimizcha yo‘q

Rekreatsiya va turizm tushunchalarining nazariy va amaliy jihatlari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilib chiqilgan hamda ko‘plab olimlar ta’rif berishgan. N.S.Mironenko, I.T.Tverdoxlebov (1984) rekreatsiya va turizmning geografik xususiyatlari to‘g‘risida, P.N.Zachinyayev, N.S.Falkovich (1972) xalqaro turizmning geografik joylanishi va rivojlanishi bo‘yicha ilmiy asarlar yaratdi. Bndan tashqari I.I.Pirojnik, E.A.Kotlyarov, A.Yu.Aleksandrovva, Yu.D.Dimitrevskiy va boshqalarning ham ilmiy ishlarida rekreatsiya va turizmning nazariy masalalarini ko‘rishimiz mumkin.¹ Ular orasida ushbu tushunchalar bir-birining tarkibiga kiradimi yoki alohida tushunchami? Agarda

¹ Sattorov A.U. Turizm geografiyasi. O‘quv-uslubiy majmua. TerDU. 2019. 31-b.

ular bir-birining tarkibiga kirsa, xo‘sh, unda qaysi biri ikkinchisini qamrab oladi? kabi savollar paydo bo‘lgan. Ushbu savollarga javob topish maqsadida turizm va rekreatsiya tushunchalariga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Sayyohlik va turizm statistikasi bo‘yicha Xalqaro konferentsiyasining 1992-yilda Butunjahon Turistik Tashkiloti tasdiqlagan hujjatlarida “Turizm bu - sayohatlar va sayohatchining odatdagi muhit doirasidan tashqarida bo‘lgan joylarga uzog‘i bilan 12 oy muddatga o‘sha yerda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanishidan tashqari har qanday maqsadda kelishidir”, deb ta’rif beriladi.

Ayrim adabiyotlarda turizmga uch xildagi umumiy ta’rif berilgan. Birinchisi, tor ma’nodagi ta’rif bo‘lib, unga binoan bu tushuncha turistik korxonalar faoliyati bilan chegaralanadi. Ikkinchisi, bir yoqlama iste’molchiga qaratilgan bo‘lib, bu ta’rifga asosan turizm faoliyati doimiy istiqomat qilish joyidan tashqarida va ishlab chiqarish tashvishlaridan holi holatda xizmat va tovarlarni iste’mol qilish jarayoni sifatida tushiniladi. Uchinchisiga ko‘ra esa, turizm tushunchasi jamiyatda insonlarning istiqomat qilish joyidan tashqarida bo‘sh vaqtdan foydalanishi va buning uchun zarur bo‘lgan xizmat va tovarlar turlarini qayta ishlash shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat va tovarlar turlarini qayta ishlash shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar majmuasini ifodalaydi.²

N.S.Mironenko va I.T.Tverdoxlebov (1981) fikricha, inson faoliyaining barcha maqsadli, maqsadsiz, bo‘sh paytlarida sog‘lomlashtirish, tanishuv, sport va madaniy-maishiy faoliyati rekreatsiya, sayohat paytida aholi yashash joyidan boshqa joyga qisqa va uzoq muddatli sayohati, sayr qishi, ekskursiysi, tanishuv, ilmiy va sport musobaqalarida 24 soat ichida bo‘lishini turizm deb hisoblaydilar.³

Turizm tushunchasiga har bir mamlakatda o‘sha davlatning joylashgan o‘rni, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitidan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif beriladi. Ko‘pincha mamlakatlarda turizm haqidagi ta’riflar qonunchiligida

² Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.:”Fan va texnologiya”, 2014. 18-b.

³ Солиев С.А., Усмонов М.Р. Туризм географияси (Самарқанд вилояти мисолида) – Самарқанд. СамДУ, 2005. –36-б.

belgilab qo‘yiladi. O‘zbekiston qonunchiligida ham turizmning asosiy tushuncha va terminlariga ta’rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999-yil 20-avgustda qabul qilgan “**Turizm to‘g‘risida**”gi Qonuni.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

turizm — jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)

Rekreatsiya so‘zi ham lotin ham polyak tillarida uchraydi. Rekreatsiya (lot. recreation “tiklanish”) – sog‘lom, lekin charchagan odamning sog‘lig‘ining normal holatini va mehnat faoliyatini tiklash maqsadida amalga oshiriladigan rekreatsion tadbirlar majmui. Rekreatsiya tushunchasining ilk alomatlari qadimga borib taqalsada, uning alohida soha sifatida namoyon bo‘lishi turizmning sayohat tushunchasidan ajralib chiqqan davrlaridan keyingi vaqtlarga to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda “turizm” va “rekreatsiya” tushunchalari orasidagi o‘zaro o‘xshashlik va farqlarni ajratish murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Turizm va rekreatsiya bir-biri bilan bog‘liq tushunchalar bo‘lgani uchun ularni o‘zaro ajratish qiyin. Ko‘pchilik mutaxassislar rekreatsiyani turizmning eng yirik tarmog‘i deb hisoblashadi. Turizmning rekreatsiyadan farqli jihati shundaki, turizm masofani bosib o‘tishni talab etadi. Rekreatsiyada esa har doim ham yashash joyini tark etish shart emas. Turizm turist tomonidan uning bo‘sh vaqtida amalga oshiriladi. Ya’ni turizm uchun bo‘sh vaqt juda muhim tushuncha hisoblanadi. Rekreatsion faoliyat ish orasida ham amalga oshirish mumkin deb hisoblashadi mutaxassislar. Masalan, ayrim tashkilotlarning binolari ichida “yashil hudud”lar tashkillashtiriladi. Xodimlar ish vaqtida toliqqan paytlarda ushbu hududlarga kelib charchoqlarini chiqarishadi. Buning uchun maxsus ishdan tashqari bo‘sh vaqtni kutish yoki biron hududlarga borish shart emas. Rekreatsiyadan ko‘zlangan maqsad ham mehnat jarayonida sarflangan aqliy,

ruxiy va jismoniy kuchni tiklashdir. Rekreatsion faoliyatni qisqa muddatda ham, uzoq muddatda ham, amalga oshirish mumkin. Qisqa muddatli rekreatsion faoliyatga yuqorida ko'rsatilgan na'munadagidek ishdagi tanaffuslar va boshqa dam olish kunlarda amalga oshirish mumkin bo'lsa, ikkinchi turi o'z ichiga haftalik dam olish davrida uzoq muddatli ko'ngil ochar tadbirlarni qamrab oladi. Birinchi holda dam olish kundalik hayoti, insonning ishlab chiqarish faoliyatidan tashqariga chiqmaydi. Ikkinchi holatda esa odatiy turmush tarzining uzoq muddatli o'zgarishiga olib keladi. Rekreatsiyaning birinchi va ikkinchi turlari ham insonning normal hayoti uchun juda zarur.

Rekreatsiyadan farqli o'laroq turizmning barcha turlari uchun bo'sh vaqt juda zarur. Turizm – ko'p qirrali tushuncha hisblanadi. Uning mazmuniga tiklanish, atrofdagi haqiqatni bilish, o'yin-kulgi, qarindoshlarni va do'stlarni ziyorat qilish, biznes va kasbiy tadbirlarda ishtirok etish, diniy ziyoratlarga borish, davolanish va boshqalar kiradi. Fanda ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi aniq farqni va ushbu atamalarning o'zaro bog'liqligini aniqlashga bo'lgan talab kuchayib bormoqda.

Demak, turizm va rekreatsiya orasidagi asosiy farq ularning davomiyligi hamda turmush tarzi bilan bog'liqligidir. Rekreatsiya kundalik hayot doirasida qisqa muddatli dam olish faoliyatini ham o'z ichiga olsa, aksincha turizm odatiylikning har qanday ko'rinishini rad etadi. Biznes maqsadalarida sayohat qilish (ish joyidan daromad olmagan holda) turizmning ajralmas qismi hisoblansa, rekreatsiya esa inson faoliyatining professional turlarini o'z ichiga olmaydi. Ko'rib chiqilayotgan tushunchalar ba'zida bir xil ma'noni anglatadi. Masalan, biron mamlakatdan sohilda dam olishga kelgan kishi bir paytning o'zida ham turistik faolitanini, ham rekreatsion faoliyatni amalga oshirayapdi. Shunday ekan turizm har doim ham rekreatsiya bo'la olmaydi ammo rekreatsiya ko'p hollarda turizm hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, turizm o'z ichiga rekreatsiyan qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sattorov A.U. Turizm geografiyasi. O‘quv-uslubiy majmua. TerDU. 2019. 31-b.
2. Солиев С.А., Усмонов М.Р. Туризм географияси (Самарқанд вилояти мисолида) – Самарқанд. СамДУ, 2005. -36-б.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.:”Fan va texnologiya”, 2014. 18-b.